

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 9 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Mamatjonov Rahimjon Akramovich

“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI 10-16

Облобердиев Жасурбек Косим угли

МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ 17-22

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Турсунов Бекмухаммад Омонович

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ 23-34

Курпаяниди Константин Иванович

ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ 35-44

Ahmedov Shohjaxon

O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI 45-51

Кулибоев Азамат Шоназарович

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ 52-62

Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ 63-73

Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 74-80

Davronov Istamxo‘ja Olimovich

МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ВАНОЛАШ USULLARI 81-86

Маматов Бахадир Сафаралиевич

ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ 87-96

Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ 97-104

Баратов Махсудали Назиралиевич

МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	143-150
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЎНАЛИШЛАРИ	208-216

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI 217-223

Teshabaeva Dilfuza Muminovna, Abduxalilova Gulbaxor Karabaevna

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ 224-230

Abdinazarov Uktam Qushoqovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

Axmedova Shaxodat Maxmutovna

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI 242-246

Vositov Otabek Toxirjonovich

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI 247-253

Hodir Raхmatullaev

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ 254-260

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ 261-270

Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI 271-276

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH 277-281

Umarova Zaxro Abduraxim qizi

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI 282-287

Kadirov Ramz Turabovich

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) 288-295

Khabiba Madaminovna Jurabekova

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK JIHATLARI	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI	363-367
<i>Xusaiova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI	380-384

Eshnazarov Murod Karimovich

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI385-391

13.00.00- Педагогика фанлари

Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna
NamDU tayanch doktoranti

**AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA
G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH**

Annotatsiya. Ajdodlar merosi shaxs imkoniyatlarini kengaytirish, uni intellektual, mahnaviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishdagi nazariy-amaliy yo'nalishlarini tadqiq etish imkoniyatini beradi. O'quvchilarning ta'lim-tarbiya faoliyatini rivojlantirishda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan qo'llanilgan didaktik vositalar, usul va metodlaridan foydalanish tizimi shakllanib bormoqda.

Kalit so'zlar: Tag'lim, Isloxotlar, Ajdodlar merosi, intellektual rivojlanish, fundamental asos, pedagogik g'oyalarning, Didaktika, Andragogika, ijodiy faoliyat. Pedagogika nazariyasi.

Tajiboeva Ma'mura Tojidinovna
Nam SU doctoral student

**DEVELOPMENT OF STUDENTS' IDEALOGICAL OUTLOOK BASED ON STUDYING THE
PEDAGOGICAL TEACHINGS OF OUR ANCESTORS**

Abstract. Ancestral heritage provides an opportunity to expand the capabilities of a person, to research the theoretical and practical directions of his intellectual, spiritual and moral development. The system of using didactic tools, methods and methods used by our thinking ancestors in the development of students' educational activities is being formed.

Key words: Education, Reforms, Ancestral heritage, intellectual development, fundamental basis, pedagogical ideas, Didactics, Andragogy, creative activity. Theory of pedagogy.

Тажибаева Маъмура Тожиidinовна
Аспирант НамГУ

**РАЗВИТИЕ ИДЕАЛОГИЧЕСКОГО МНЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИЗУЧЕНИЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ НАШИХ ПРЕДКОВ**

Аннотация. Наследие предков дает возможность расширить возможности человека, исследовать теоретические и практические направления его интеллектуального, духовно-нравственного развития. Формируется система использования дидактических средств, приемов и приемов, применявшихся нашими мыслящими предками в развитии учебной деятельности учащихся.

Ключевые слова: образование, реформы, наследие предков, интеллектуальное развитие, фундаментальная основа, педагогические идеи, дидактика, андрагогика, творческая деятельность. Теория педагогики.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N46>

Kirish. Oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida talabalarning g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirish vazifasi belgilangan. Zamonaviy bilim olish orqali egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni hayotda tatbiq eta olgan insongina davr bilan hamnafas yashay oladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi va o'zi uchun qulay, tejamkor, sifatli va samarali muhit yaratadi. Darhaqiqat, vatanimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi mahsuli — qadimiy yozma manbalar xalqimizning buyuk ma'naviy boyligidir. “Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur”.

[1]

Adabiyotlar sharhi. Ushbu natijalarga erishish uchun buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya nazariyasining fundamental asosi sifatida qo'llagan holda ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, zamonaviy ta'lim yondashuvlari qo'llash orqali ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash, ko'zlangan natijalariga erishishni kafolatlovchi ta'lim muhitini yaratish zarur. Buyuk ajdodlarimiz — Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zamaxshariy singari umumbashariy taraqqiyotga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning ilmiy merosi qalbimizda iftixor tuyg'usini uyg'otishi bilan bir qatorda ularning ijod mahsuli bugungi kunda dolzarblik kasb etayotgan ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari uchun fundamental asos ekanligi hech kimga sir emas albatta. Barcha davrlarda bobolarimiz ilmning millat va davlat kelajagidagi o'rnini juda yaxshi anglagan. Buning yorqin dalili sifatida muhaddislar sultoni — Imom Buxoriy bobomizning o'n ikki asr oldin “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay” degan fikrlarini keltirish mumkin.[2] Bizning turonzamin xalqlarimiz axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar “Avesto” kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Muhokama va natija. Hadisi Sharifdagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Farobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikrlar bugungi kunda ham har bir inson uchun qadr-u qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur Axloqiy Husniya-yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. O'z askarlariga, xalqiga shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki, yetti o'lchab bir kesgan. Uning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan bog'liqdir. “...millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Sizlardagi vazifalaringiz millat dardlariga darmon bo'lishdir... men kabi uzun saltanat surmoq istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz... orangizda nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bering... bularga sodiq qolsangiz tosh boshingizga tushmas”.[3] Ismoil-al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va amonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsa ham zarari yo'qdir”.[4]

Talabalarda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan qo'llanilgan didaktik vositalar, usul va metodlaridan foydalanish tizimi shakllanib bormoqda.

Ilg'or texnologiyalar asri hisoblangan XXI asrda axborotlar ko'lamining nihoyatda kengaygani tufayli ularni o'zlashtirishda qiyinchiliklar vujudga kelmoqda, buning uchun talabalarning muntazam izlanishlari, ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishlari taqozo qilinmoqda. Bu holat talabalarning g'oyaviy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini shart qilib qo'ydi. G'oyaviy dunyoqarash esa, dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan g'oyaviy qarashlar tizimi hamda bunday g'oyaviy nuqtai nazarga nisbatan insonning e'tiqodi, uni bilish va o'zlashtirishga nisbatan intilishidir. Dunyoda pedagogik ta'limotlarni o'rganish, uning shaxs aqliy kamolotidagi ahamiyatini asoslab berish, talabalarni intellektual rivojlantirishda pedagogik merosdan unumli foydalanishning nazariy-fundamental asoslarini tadqiq qilishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, talabalar xulqini ajdodlarimiz merosi vositasida axloqiy jihatdan rivojlantirish, islom dinining hayotbaxsh g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish, hadislarning shaxs ma'naviyatini rivojlantirishdagi ulkan ahamiyatini tadqiq qilish zarurati muhim ahamiyatga egadir. "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish" ustuvor maqsad qilib belgilangan. Bu borada ajdodlarimiz merosining yosh avlod ongi shuuriga ta'sir etish ahamiyatini o'rganish, hadisshunoslik ilmini rivojlantirish, fiqhshunos mutafakkirlarning huquqiy tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik amaliyotda keng foydalanish kabi jihatlarni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim tizimi jadal rivojlangan ayni davrda pedagogik ta'limotlar tarixini o'rganish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

- umumjahon tarixiy pedagogik jarayonning rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish;
- eng qadimda yaratilgan pedagogik g'oyalarning pedagogik mazmunini ochib berish va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- pedagogik g'oyalarning taraqqiyot tendensiyalarini aniqlash va ularning shaxs intellektual taraqqiyotidagi o'rnini belgilash;
- ajdodlarimiz pedagogik ta'limotlarini o'rganish asosida talabalarda g'oyaviy dunyoqarashni rivojlantirish;
- jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda tarixiy tajribalardan samarali foydalanish;
- huquqiy tarbiyaning konseptual asoslarini ishlab chiqishda mutafakkirlar merosiga tayanish ajdodlarimiz merosini o'rganish asosida talabalar o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish;
- talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda ajdodlarimiz merosidan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash; Mana shunday oldimizga qo'ygan asosiy va ayni damda dolzarb masalalarni hal yetishimizda bizga amaliy faoliyatlar yordamga keladi.

"Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Xalq pedagogikasi", "Andragogika" fanlarini o'qitish orqali ajdodlarimizning pedagogik ta'limotlari bilan zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalash asosida talabalarda o'quv-bilish faoliyatining rivojlanlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar va ko'rsatkichlarni ishlab chiqilmoqda. O'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda pedagogik turkum fanlarning mazmunini takomillashtirish va shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining imkoniyatlari baholanadi.

O'quvchi shaxsining bilish faoliyatini rivojlantirishga oid ajdodlarimiz pedagogik qarashlarining rivojlanish dinamikasini, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarning o'quv-bilish faoliyati modelini takomillashtiriladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari faollikning komponentlari (o'quv topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik, mustaqil faoliyatga ko'rsatishga intilish, topshiriqlarni bajarishga ongli yondashish, o'qish va o'rganishning tizimli xarakter kasb etishi, o'zini shaxsiy darajasini ko'ra olishga intilishi) bilan o'quv faolligining ichki va tashqi yo'nalishlardagi integratsiyasini real ta'limiy sharoitlarda qo'llash asosida aniqlashtirilgan.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini ajdodlar merosini o'rganish orqali o'z faoliyatlarini rivojlantirishga doir bosqichlar asosida bilish faoliyati va bilish qobiliyati bilan bog'liq hissiy-irodaviy, refleksiv-baholovchi kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beruvchi ta'riflash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga moslashtirilgan pedagogik operatsiyalar tizimi ishlab chiqish.

Ajdodlarimiz merosi tavsifi asosidagi tarixiy va zamonaviy tendensiyalarni uyg'unlashtirgan holda talabalar faoliyatini rivojlantirishning didaktik ta'minoti yaratilmoqda. Bu kabi didaktik yo'nalishlari multimedia, keys, kouching, Web-kvest topshiriqlari, mustaqil ishlar pedagogik turkum fanlarni o'qitishda talabalarning individual ta'lim traektoriyasini belgilashga xizmat qiluvchi mustaqil ijodiy faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida takomillashtirilgan.

Tarbiya usullari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Osiyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda esa ko'proq umuminsoniy tarbiya elementlari qo'llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o'ziga xosligi o'zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga quloq solishlik, ularning topshiriqlarini beminnat bajarishdir. Bugun tug'ilib voyaga yetayotgan bola muayyan vaqtdan keyin biron bir kasbda ishlaydi, agronom, muhandis, o'qituvchi, shifokor va boshqa ommaviy kasb egasi bo'ladi yoki davlat va nodavlat tuzilmalarida faoliyat ko'rsatadi.

Buyuk bobokalonimiz Amir Temir har vaqt: "Insonpafvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi", degan hikmatli so'zni takrorlashni xush ko'rgan va hayotda o'zlari ham amal qilgan.[5] Shuni aytish kerakki, Amir Temir odob-axloq, imon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning o'zi tomonidan yaratilgan odob va axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni o'qib chiqish kifoya. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, bo'lajak avlod ongi, his-tuyg'usi shu ruhdan oziq oladi va bunday odamlarda ma'naviyat eng yuksak cho'qqiga chiqadi. Odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar chinakam insoniy tus olsa, shubhasiz, bu holat jamiyatning butun faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha talaba-o'quvchilarini Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish — bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir. Mutaxassislarining kasbiy, ixtisoslik tayyorgarligi

millatning ma'naviy merosidan oziq olgan bo'ladi, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari, keng dunyoqarashi va chuqur aql-idroki, yuksak ijtimoiy axloq me'yorlari bilan o'zaro muvofiq kelishi ta'minlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarda g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish muammosi shaxsning ongi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, avvalo uning metodologik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq tushunchadir. Dunyoqarash insonni o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Har bir insonning dunyoqarashi asta-sekin rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, ta'lim dasturini ishlab chiqish asosiy dunyoqarash g'oyalarini o'zlashtirish asosida qurilgan. G'oyaviy dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shadigan fanlar, professional mutaxassisga jamiyat rivojlanishining o'zgaruvchan sharoitlariga tezda moslashishga imkon beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayoni bilan tanishdi 21 dekabr 2018.
2. "Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi mahsuli 30 Oktabr 2020.
3. Ma'rifiy doston. Sohibqiron yog'dusi G'afur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2022.
4. «Harbiy rahbar mahorati» fanidan MA'RUZA MATNI Toshkent - 2020
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, Cho'lpon, 1992 yil.
7. Abdullaev X. Movarounnahr xalqlari pedagogik merosi. Etnopedagogika / Dastur. – Farg'ona: 1993.
8. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktor. ... dis.– Toshkent: TDPU, 1993. – 389 s.
9. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar – sog'lom avlodni tarbiyalash vositasi. -T.: 1995.b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 9 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).